

13-dars

Darsning mavzusi: Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar

Darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarni o'rgatish; So'zlarga so'roq bera olish ko'nikmasini o'stirish; Talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish;

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarni insonni go'zal qiladigan kamgaplik, tartiblilik, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalash; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish;

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning lug'atini boyitish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "Kim ko'p so'z biladi?" ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- salomlashish; navbatchi axboroti; kun, oy, yil yangiliklari.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Kichik "l" harfi unsurga ajratilmay bir butun: usti halqali, osti ilmoqli uzun tayoqcha shaklida yoziladi.

Daftarga bir qator kichik l"harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: laylak, lazzat, limon, lola, labbay.

O'tilganlar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzuni tushuntirishda darslikda berilgan 59-mashqdagi topshiriqlar bajariladi. Quyidagi misralarni diqqat bilan o'qing.

Senga mehrim dil to'la qaynoq,

Erkimizning timsoli – bayroq.

Dil, qaynoq, erk soʻzlarini yana qanday soʻzlar bilan oʻzgartirsa boʻladi?
Oʻylab koʻring!

Dam olish daqiqasi

Oʻgʻillarmiz-qizlarmiz,

Loʻppi shirmoy yuzlarimiz.

Oʻzbekiston ertasi,

Kelajagi bizlarmiz.

Qoida bilan tanishtiriladi.

oʻzlar shakl va maʼno turlariga koʻra quyidagicha boʻladi:

1. Shakldosh soʻzlar;
2. Maʼnodosh soʻzlar;
3. Zid maʼnoli soʻzlar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Oʻquvchilar diqqatini darslikda berilgan **60-mashqqa** qaratiladi. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga maʼnodosh soʻzlar topiladi.

Ona yurtim, mangu boʻl omon,
Madhing ila toʻlsin keng **osmon**.

Bayrogʻingga boqqanda **jahon**,
Doʻstlar yuzi boʻlsin **nurafshon**.

Baxtimizning **timsoli** – bayroq,
Yashna toʻvus misoli bayroq!

Osmon-falak, samo, koʻk

Jahon-dunyo, olam

Nurafshon-yorugʻ, nurli

Timsoli-koʻrinish, ramzi

61-mashq “Kim koʻp soʻz biladi?” oʻyini orqali bajariladi.

issiq – sovuq yaxshi – yomon

saxiy – qizgʻanchiq katta – kichik

toʻgʻri – egri odoʻbli – beodob

keng – tor baland – past

Darslikda berilgan 62-mashq yozma bajariladi. Maʼnodosh soʻzlarni topib juftlab yozing.

Sovgʻa-tuhfa, qiyinchilik-mashaqqat, gʻalaba-zafar, shod-xursand, tilak-istak, buyuk-ulugʻ, yiroq-olis, bahs-tortishuv.

V. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, guruhlardagi faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

63-mashq. Maqollarni o'qing. Ularning ma'nosini tushuntiring. Zid ma'noli so'zlarni ko'chiring.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!